

ABDULLA QODIRIY PUBLISISTIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tohirova Rumayso Furqat qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Fizika fakulteti fizika yo'nalishi 3- bosqich talabasi

miraculossakura@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu adabiy-tanqidiy maqolada Abdulla Qodiriyning berilgan to'plamdagi maqola va feletonlari, ularda ilgari surilgan g'oyaviy-konseptual masalalar, qodiriyona satira tili va uslubi hamda ushbu asarlarning bugungi kunga tutash dolzarb qirralari aniq ilmiy va matniy faktlar asosida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: "Julqunboy", "Kalvak Maxsum", "Toshpo'lat tajang", "Qimmatchilik hasrati", "Dumbasi tushib qolgan emish", "Maorif sho'rosi diqqatig'a", "Burun va hozir".

KIRISH. XX asr boshlari o'zbek milliy uyg'onish tarixida keskin burilishlar, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hamda ruhiy inqirozlar davri sifatida muhrlandi. Zamonning ziddiyatli manzaralari, mustamlakachilik va yangi sho'ro tuzumining dastlabki yillaridagi parokandalik, ocharchilik, milliy qadriyatlarning toptalishi hamda ma'muriy byurokratiyaning bolalashi milliy adabiyot oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Ushbu murakkab va tahlikali tarixiy pallada o'zining otashin qalami, o'tkir satirasi va yuksak insoniylik burchi bilan maydonga chiqqan buyuk adib Abdulla Qodiriy (Julqunboy) o'zining publitsistik faoliyati bilan o'zbek vaqtlari matbuoti hamda badiiy nasrida o'chmas iz qoldirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Abdulla Qodiriyning 1919–1926-yillar oralig'ida "Ishtirokiyun" gazetasi hamda "Mushtum" satirik jurnalida chop etilgan publitsistik maqolalari va feletonlari shunchaki davr hujjatlari emas, balki chuqur badiiy-falsafiy, ijtimoiy-psixologik hamda estetik tahlil ob'ektidir. Adib o'zining "Julqunboy", "Kalvak Maxsum", "Toshpo'lat tajang" kabi o'nlab taxalluslari va qahramonlari orqali xalqning dardu hasratini, qashshoqlik va adolatsizlik so'qmoqlarida ezilgan chorasiz inson ruhiyatini yuksak mahorat bilan ko'rsatib berdi.

Abdulla Qodiriy publitsistikasining eng salmoqli va ta'sirchan qismini 1919-yilgi ocharchilik va pul qadrsizlanishi davriga bag'ishlangan maqolalari tashkil etadi. "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 5-avgust sonida e'lon qilingan "Qimmatchilik hasrati" maqolasi adibning fuqarolik jasorati va xalq hayotini aniq badiiy-publitsistik tahlil qila olish salohiyatini ko'rsatadi.

Qodiriy maqolada o'zining 7 kishidan (ota, ona, xotin, qiz, ukasi, 1 yoshli o'g'li

va o'zi) iborat oilasi timsolida butun Turkiston xalqining iqtisodiy fojeasini ko'rsatib beradi. Muallif kunlik daromadi va xarajatlarini birma-bir hisoblab chiqadi. Qodiriy bunday maishiy faktlarni keltirish orqali sho'ro hukumatining Oziq-ovqat qo'mitasi ("Eski shahar Oziq sho'bas") va undagi 200–300 nafardan ortiq layoqatsiz, buyruqboz amaldorlarning faoliyatini keskin tanqid qiladi. Adib tildagi o'tkir piching va iztirobli istehzo bilan yozadi:

"Man so'qqabosh bo'laturib deb shuncha qiynalmoqdaman, ammo bola-chaqalik akalarning holi nima kechmoqda ekan, mazmunida bir so'z so'zliydir..."

Suhbatdoshining "Boshimizdagi Eski shahar Oziq sho'basining borligi shunchalik bo'lur..." degan e'tiroziga javoban Qodiriy o'sha davr uchun o'ta jasoratli taklifni ilgari suradi:

"Bizdek kambag'al Julqunboylarni, o'zingizni, ham komitetingizdagi ikki yuzmi, uch yuzmi xizmatchilaringizni javobini beringizda hammamizni ovoragarchilikdan ham tamug'likdan qutqaring!"

Adib xalqning bu nochor ahvolini ota-bobolarning "Qarzing mingga etsa, murg'i musamman yegin!" degan maqoli bilan ifodalab, jamiyatda kundan-kunga ildiz otayotgan chayqovchilik va hukumatning ojizligini ochiq ko'rsatadi.

Ushbu mavzuning bevosita mantiqiy davomi sifatida 1919-yil 11-avgustda e'lon qilingan "Dumbasi tushib qolgan emish" sarlavhali feletonda go'sht tanqisligi va qassoblarning hiylalarini bayon etadi. Bir qadoq go'shtning narxi 36 so'mga chiqib ketgani, ertalab soat 6 dan kunduzi soat 2 gacha 30–31 kishilik navbatda turib, olingan yarim qadoq go'shtning 4 qadog'i "shaqir-shuqur so'ngak" (suyak) bo'lib chiqqani achchiq kulgi bilan xarakterlanadi. Qodiriy go'shtga qarata iltijo qiladi:

"Go'sh... Otingdan o'rgulay go'sh!.. Nega muncha o'zingni bizdan aziz tutding? Biz sening qadringga etmadikmi?.."

Qassobning "Moyi yo'q!" degan javobiga Qodiriyning xaxolab kulishi — bu umidsizlik va fojining ustidan kuluvchi, sho'ro idoralarining o'zini o'ylashi hamda soxtaligini ochib beruvchi holatdir.

Abdulla Qodiriy publitsistikasida millat taqdiri, maktab va maorif masalasi markaziy o'rin tutadi. Adib yaxshi anglar ediki, ma'rifatsiz millat har qanday tuzum va g'oyaning o'yinchog'iga aylanishi muqarrar. "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 23-sentyabr sonida chop etilgan "Maorif sho'rosi diqqatig'a" nomli maqolasi maorif tizimidagi shaklbozlik va mas'uliyatsizlikka qaratilgan. Maqolada ko'tarilgan asosiy muammo — maktab o'quvchilari uchun eng oddiy darslik va o'quv qurollarining (daftar, qalam, qog'oz) yo'qligi va ularning behad qimmatligidir. Bir dona daftar 40–50 so'm, bir dona qalam 30–40 so'm bo'lgan bir sharoitda, bitta bolaning oylik darslik xarajati 100–200 so'mga tushar edi. Ishchi va kasanachilarning bolalari maorif idoralarining "Shoshmang, barisi topilur" degan balandparvoz, ammo puch va'dalari

tufayli savod chiqarishdan mahrum bo'layotgan edi. Qodiriy maorif mutassaddilarini quruq majlisbozlikda va xalq ehtiyojidan uzilib qolganlikda ayblaydi:

“Ular “Shoshmang, barisi topilur”dan nariga o'tmay bu yo'lda harakat etdiklari ko'rilmaydur... Ishchi bolalari yonlaridan daftar-qalam olganlarinda, oqchaga ham topilmay tag'i bir balo bo'lur.”

Qodiriy faqat ijtimoiy-iqtisodiy sohani emas, balki madaniyat va adabiyot sohasidagi saviyasizlikni ham shafqatsiz tanqid qiladi. 1920-yil 16-aprelda nashr etilgan “Bozor surishtirmaydir” nomli feletonida adib tijoriy bozordagi sifatsiz mahsulotlar bilan adabiyotdagi bebozorlik va saviyasizlikni parallel ravishda tahlil etadi. Etikchining noaniq bichilgan ettigini xaridor sifatini surishtirmasdan olavergani kabi, pyesa yozuvchi dramaturglarning ham “bozor surishtirmagani uchun qaydagi safsata, cho'p, xashak, supurindilardan har soat pyesa yozib, dunyoda o'zlaridan “asar” qoldirmoqqa harakat qilishlari” o'tkir va ayovsiz fosh etiladi. Qodiriy bu yerda badiiy qoliplarga mos kelmaslikni milliy adabiyot va teatrning fojiasi deb biladi. Agar tomoshabin va kitobxon talabchan bo'lmasa, sahnani va adabiyotni siyqasi chiqqan va o'ta maishiy asarlar egallab olishi haqidagi ogohlantirish bugungi kun madaniy muhiti uchun ham favqulodda dolzarbdir.

“Burun va hozir” (Qalamkashlar hayotidan) nomli 1926-yillarda e'lon qilingan feletonida esa sho'ro matbuotida ishlayotgan qishloq muxbirlari va jurnalistlarning qashshoq ahvoli sobiq saroy shoirlarining xon va boylarga qalloblik bilan laganbardorlik qilgan davri bilan solishtiriladi. Qodiriy achchiq haqiqatni yozadi: bugungi jurnalist bir-ikki so'm qalam haqi (gonorar) uchun ertadan kechagacha idorama-idora chopib, “itdek horib” yuradi. Bu bilan adib ijod ahlining moddiy va ma'naviy erkinligi ta'minlanmagan jamiyatda matbuotning rivojlanishi qiyin kechishini anglatadi.

Abdulla Qodiriy publitsistikasining cho'qqilaridan biri, shubhasiz, 1926-yilda “Mushtum” jurnalida e'lon qilingan va katta shov-shuv hamda ta'qiblarga sabab bo'lgan “Yig'indi gaplar” feletonidir. Ushbu asar o'sha davrdagi Sovetlarning ma'rifat va ma'muriyat sohasidagi barcha soxtaliklarini, amaldorlarning balandparvoz majlisbozligi hamda xalq hayotidan uzilib qolgan statistikasini fosh etuvchi yuksak adabiy-siyosiy satira namunasidir. Feletonda 1926-yilgi Maorif qurultoyi va unda Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev hamda Akmal Ikramovlarning ma'ruzalaridagi raqamlar keskin tahlil qilinadi. Rasmiy hisobotda "Respublikamizda har 200 murassa chaqirim yerga, yoxud har 4909 odamga bitta maktab bor..." deyilgan edi. Qodiriy ushbu balanparvoz statistikaning puchligini xalqona soddalik va mantiq bilan fosh etadi. Qodiriy buni qoralab o'sha davrdagi keksalarning hisobi bo'yicha “Sakkiz chaqirim bir tosh bo'ladi, bir toshni yaxshi oting bo'lsa bir soatda bosasan” deydi. Demak, 200 murassa chaqirim yer degani har bir tomonga kamida 14–15 chaqirim masofani tashkil etadi. Bu degani, qishloqdagi 7–8

yoshli yosh bola har kuni maktabga borish uchun kamida 15 chaqirim yo'l bosishi kerak! Adib so'raydi: sho'ro maorifchilari bolalarni maktabga borishi uchun ot yoki samolyot bilan ta'minlaganmi?

Qodiriy shuningdek, davlat idoralarini "mahalliyashtirish" siyosatining ham shunchaki qog'ozda qolayotganini va aslida bilimli, millatparvar ziyolilar (Cho'lpon, Munavvarqori va b.) chetlatilib, ularning o'rniga savodsiz, xushomadgo'y va soxta kadrlar keltirilayotganini fosh etadi. "Yig'indi gaplar" — bu sho'ro byurokratik boshqaruvning majlisbozligi, rasmiyatchiligi va xalq taqdiriga befarqligiga berilgan adabiy va siyosiy zarba edi. Aynan ushbu feleton sababli Qodiriy 1926-yilda hibsga olinadi va sud qilinadi. Sudda adib o'zining mashhur "Kallam ketsa ham haqiqatni aytaman" degan nutqi bilan o'z e'tiqodidan qaytmasligini namoyon etadi.

A. Qodiriy uslubining asosiy badiiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Birinchidan u o'z matnlarida xalq iboralari, maqollar va kinoyali so'z o'yinlaridan unumli foydalanadi ("murg'i musamman yemoq", "dumba tushishi", "shaqir-shuqur so'ngak", "bozor surishtirmaydir"). Ikkinchidan, adib salbiy hodisa va shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri koyimaydi, balki ularni o'z tili bilan "maqtash" orqali ularning tubanligini fosh etadi (masalan, Shoholim hojini Rotshild va Rokfelleriga tenglashtirishi). Uchunchidan, Qodiriy publitsistikasi quruq safsataga emas, balki aniq hisob-kitoblarga, narx-navo, masofa va statistika faktlariga tayanadi. Bugungi XXI asr globallashuv va bozor iqtisodiyoti davrida Abdulla Qodiriy ilgari surgan g'oyalar o'zining qiymatini biroz bo'lsa-da yo'qotgani yo'q, aksincha, yangicha ma'no va o'tkirlik kasb etmoqda. Qodiriyning 1919-yildagi narx-navo va chayqovchilik haqidagi fikrlari bugungi kun bozorlarida ham narxlarning asossiz oshishi, sun'iy tanqislik va iste'molchi huquqlarining poymol etilishi fonida favqulodda zamonaviydir. Maktab va darsliklar sifati, ta'limdagi rasmiyatchilik va balandparvoz hisobotlar haqidagi "Maorif sho'rosi diqqatig'a" hamda "Yig'indi gaplar"dagi tanqidlar bugungi ta'lim islohotlarida uchraydigan shaklbozliklarni bartaraf etishda saboq bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Abdulla Qodiriy (Julqunboy) publitsistikasi va feletonlari — bu XX asr boshidagi Turkiston xalqining ruhiy va ijtimoiy fojeasini, umidlari va armonlarini o'zida aks ettirgan adabiy va tarixiy ko'zgudir. Adib o'zining o'tkir qalami bilan jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, ocharchilik, maorifdagi inqiroz, burokratiya va ma'naviy tubanlikka qarshi amalda murosasiz kurash olib bordi. Yuqoridagi publitsistik materiallari Qodiriyning nafaqat buyuk roman ustasi, balki serqirra publitsist, otashin vatanparvar va yuksak fuqarolik mas'uliyatiga ega bo'lgan millat ma'rifatpari ekanligini to'liq isbotlaydi. Qodiriy publitsistikasini o'rganish va uni bugungi kun muammolari bilan qiyosiy tahlil etish milliy o'zlikni anglash, jamiyatda adolat va ma'rifat tamoyillarini qaror topdirish hamda kelajak avlodni rostgo'ylik, jasorat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muqaddas va boqiy dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodiriy, Abdulla (Julqunboy). To'plam: Maqolalar va feletonlar (1919–1926-yillar). "Ishtirokiyun" gazetasi va "Mushtum" jurnali materiallari.
2. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. Mirzayev, M. Abdulla Qodiriyning feletonchilik mahorati. Toshkent: Fan, 1978.
4. Normatov, U. Qodiriy mo'jizasi. Toshkent: O'zbekiston, 2010.
5. Qo'shjonov, M. Abdulla Qodiriyning tasvir uslubi. Toshkent: Fan, 1983.
6. Yoqubov, I. XX asr o'zbek nasrida badiiy tafakkur va uslub izlanishlari. Toshkent: Akademnashr, 2018.